

“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB
MASALALARI VA UNI O‘QITISH
METODIKASI MUAMMOLARI” mavzusidagi
IV XALQARO AN‘ANAVIY
ILMIY-AMALIY ANJUMAN



2025-yil 9-dekabr

ANJUMAN
MATERIALLARI



Jizzax - 2025



www.jdpu.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLAQODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI
tomonidan tashkillashtirilgan

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB
MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI
MUAMMOLARI”**

mavzusidagi

**IV XALQARO AN‘ANAVIY ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

(2-kitob, III-VI shu‘balar)



JIZZAX-2025

V. BADIY TARJIMA MUAMMOLARI

Shu’ba raisi: f.f.f.doktori (PhD), dotsent Salimova Dilnavoz Akmalovna
Kotibi: JDPU katta o‘qituvchisi Boysinov Sohib Sobirovich

T/r	Mualliflar va maqolalar	Sahifasi
1.	BEKOVA NAZORA, MASUTOVA SHAXLO. Alisher Navoiyning forsiy qit’a va ruboiylarida muhabbat va ilohiy ishq mavzusi	209
2.	BEKOVA NAZORA IBROIMOVA MAHLIYO. Alisher Navoiy forsiy qasidalarida faqr-u fano talqini	212
3.	DONIYOROVA GULRUX. “Saodat” jurnalida chop etilgan tarjima asarlar tahlili (1966-1976-yillar misolida)	215
4.	ALLAMBERGENOV DAVRONBEK. Abdulla Oripov she’rlari qoraqalpoqcha tarjimalarida etnografik birliklarning berilishi	219
5.	SAIDQULOVA NARGIZA. Tanqidchilik, tarjima va estetik yondashuvlar (Ozod Sharafiddinovning adabiy merosi misolida)	222

VI. TA’LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYALASH USULLARINI JORIY ETISH

Shu’ba raisi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Xidirova Munavvara Rustamovna
Kotibi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Turolova Parizod Shavkat qizi

T/r	Mualliflar va maqolalar	Sahifasi
1.	MİKAYILLIBÖYÜKAĞA. Məktəbəqədər və ibtidai təhsildə təlim strategiyaları: beynəlxalq tədqiqatların nəticələri	226
2.	ALMAZ ÜLVİ BİNNƏTOVA, CƏBRAYILOVA AYSUN. Türk dövlətləri kitabxanalarında mədəni irsin qorunması missiyası: Azərbaycan, Türkmənistan və Özbəkistan müstəvisində	232
3.	АХМЕДШИНА ФАНИЯ. Женщины в STEM и искусственном интеллекте Узбекистана и мира в условиях цифровой трансформации	235
4.	МИРСАМИНОВА ГУЗАЛХОН. Методические подходы к преподаванию английского языка как второго языка в эпоху искусственного интеллекта	245
5.	АТАМУРОВОДА РОҲИЛА. Тафаккурни шакллантиришда бадиий асарлардан фойдаланиш	250

ALISHER NAVOIY FORSIY QASIDALARIDA FAQR-U FANO TALQINI

*Bekova Nazora Jo‘rayevna,
BuxDU professori, f.f.doktori
Ibroimova Mahliyo Najmiddinovna,
BuxDU doktoranti*

Alisher Navoiy Sharq tasavvufiy tafakkurining eng yirik arboblardan biri bo‘lib, uning ijodi turkiy va forsiy adabiyot rivojida alohida o‘rin tutadi. Navoiyning forsiy merosi o‘z mazmuni va shakliy yetukligi bilan salaflaridan qolishmaydi, ba‘zan esa ayrim jihatlarda ularning eng yaxshi an‘analarini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Xususan, uning forsiy qasidalarida tasavvufning asosiy tushunchalari -faqr, fano, baqo, tavhid, ishq kabi mavzular chuqur falsafiy va badiiy talqin etilgan.

Tasavvufda “faqr” Alloh oldida ojizlik, dunyoviy nafs istaklaridan voz kechish, ruhiy poklanish ma‘nosida qo‘llanadi. “Fano” esa ilohiy haqiqatda “men”ning yo‘qolishi, ruhning ilohiy nur bilan birlashish jarayoni sifatida tushuniladi. Navoiyning forsiy qasidalarida bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldirib, insonning ma‘naviy kamolot sari o‘tadigan yo‘lining bosqichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada shoir forsiy qasidalarida faqru fano talqini, ularning ramziy ifodalanishi va tasavvufiy mazmunning badiiy shakllanishi ilmiy tahlil qilinadi.

Faqr tushunchasining tasavvufdagi mazmuni va Navoiyning talqini

Tasavvufda faqr so‘zi lug‘aviy jihatdan “kambag‘allik”, “ojizlik” ma‘nolarini bildirsa-da, irfon an‘analarida u ruhiy boylik, qalb pokligi, dunyoviy manfaatlardan voz kechish kabi ma‘nolarga ega. Navoiy o‘z forsiy qasidalarida aynan ana shu ruhiy mazmunni ulug‘laydi. Shoir uchun faqir -mol-dunyosi kam odam emas, balki, dunyo lazzatlariga mukkasidan ketmagan, nafsini jilovlay olgan, Haqning roziligini barcha narsadan ustun qo‘ygan, ruhiy ozodlikka erishgan insondir.

Uning mashhur baytlaridan birida shunday deyilgan:

*“Dar faqr chu sultoni jahon ast niyoz,
Sultoni jahon ro ba faqir ast ehtiyoj” .*

Mazmuni: *Faqrning o‘zi jahonning sultonidir; chunki dunyo sultonining o‘zi ham faqirga muhtojdir.*

Navoiy bu satrlar orqali tashqi saltanatning vaqtinchaligiga qarshi ichki boylik -ruhiy saltanatni qo‘yadi. Faqr -odamni kamtar qiladi, uni Haqqa yaqinlashtiradi va insonning haqiqiy yuksalishiga yo‘l ochadi. Navoiyning fikricha, faqr -bandaning o‘zini donishmandlik, boylik yoki maqom bilan emas,

balki Allohning marhamati bilan tirik ekanini anglashidir. Shu bois shoir faqrni insonning ma’naviy komillikka eltuvchi eng muhim bosqich sifatida ta’riflaydi.

“Sittai zaruriya” tarkibidagi birinchi qasidaning, ya’ni umumiy oltilik tizimining birlamchi asosini Ruh tashkil etadi. Shuning uchun asar “Ruh ul-quds” deb nomlangan. Mutlaq Ruh va undan ajralgan ruhning yana Unga qaytish (uru) asoslari ifodalangan. Ruh quvvasidagi 6 jihat, asos Fariduddin Attorning “Ilohiynoma”sidagi “Ruhga murojaat qilib degani” qismida birma-bir izohlanadi: “Ruh-ajoyib bir qushsan, na erdasan, na osmonda, balki Tangri taolo huzuridasan. Sening asosingda oltita belgi bor, ammo ularning har biri bir jahon-alohida bir olam. Har biri-bir sohibqiron, bir qudrat.

1. Biri Nafs belib, uning joyi sezgi a’zolaridir.
2. Biri Nafsi ammora belib, ziddiyatlar, nifoq shundan.
3. Biri Aqlidir, aql muvofiqlikni, mantiqni boshqaradi.
4. Biri Ilmdir, ma’lumot, bilim teplash bilan band.
5. Biri Faqrdir, fano-yeqlik istar hamisha.
6. Biri Tavhiddir, YAgona zot istar va Unga intilar doim” [1; 12].

“Olti zarurat” tarkibidagi birinchi qasidaning “Ruh ul-quds” deb nomlanishining asosiy manbai ham shudir. “Ruh ul-quds” qasidasi – “Hayrat ul-abror” dostoni singari dasturiy–muqaddimaviy asar. YUqorida sanab etilgan ruhning olti quvvasi haqida “Sittai zaruriya” turkumidagi qasidalarining har birida qayta-qayta (yangicha tasvir usulida) izohlanadi. Chunki Alisher Navoiy Ollah-Olam aloqadorligining barcha sabablarini ruhning ana shu olti jihatiga tegishli deb biladi. Bu oltilik tizimi tarkibiy qismlari ez navbatida yana bir necha oltilik tizimiga belinadi, ya’ni Inson va Koinot, Inson va Mavjudot, Inson va Ilohning ezaro bog‘liqligi olam olti ilohiy kun mahsuli (“Ruh ul-quds”da bu xususda ma’lumot beriladi), olti “nodir jihati koinot va faqr ruknlari (“Aynul - hayot” va «Tuhfat ul-afkor» qasidasida bunga keproq urg‘u beriladi), olti iymon arkoni tarkibiy qismlari (“Qut ul-qulub”da arkoni iymon shartlari keng izohlanadi), jism qafasida ruhning sog‘lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosi (“Minhoj un-najot”da bu masalaga doir asosli ishoralar bor), namoz farozidagi olti xorij va doxil farzlar (“Nasim ul-xuld” va “Qut ul-qulub»da bu masalalar tasviriga kengroq ahamiyat berilgan) bir-biriga bog‘liq ravishda bir ilohiy mohiyatga borib taqaladi va shu tariqa oltilik tizimi – “Sittai zaruriya” shakllanadi.

Bu oltiliklarning barchasi umumiy bir ilohiy maqsadga – odam jismi qafasidagi ruhni Mutlaq Ruh tomon taraqqiy etib borishini ta’minlovchi uzluksiz tadrijiy jarayonga xizmat qiladi. [4; 3]

Fano tasavvufning eng yuksak darajalaridan biri bo‘lib, unda banda o‘z “men”idan voz kechadi va ruhiy jihatdan ilohiy haqiqat bilan uyg‘unlashadi. Bu holat shoirlar tomonidan asrlar davomida “erishiladigan eng oliy ruhiy maqom” deb ulug‘langan.

Navoiyning forsiy qasidalarida fano: nafsni tamoman yengish, o‘zligini Haq ishqida eritish, ilohiy nurni qalbda sezish, komil inson darajasiga ko‘tarilish mazmunlarida talqin qilinadi. Uning bir baytida shunday o‘qiymiz:

*“ Faqr ahli istab qurbating, ahli g`ino ham toating,
Yetkanga dog`I furqatingne faqr nofi, ne g`ino ”.*

Mazmuni: Bu baytda Navoiy **faqr** (ruhiy kambag‘allik, Haqqa to‘la ehtiyoj) va **g‘ino** (boylik, to‘qlik, nafsiy mustaqillik) tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Ya‘ni: Haq yo‘lida o‘zini ma‘naviy faqir deb bilgan, dunyodan kechgan banda Sen (Haq)ning **yaqinligingni (qurbatingni)** istaydi. Faqr ahli uchun eng oliy martaba – **Allohga yaqinlik**.

Navoiy ijodida faqr va fano bir-biridan ajralmaydi. Faqr -yo‘lning boshlanishi, fano -yakuni. Shoir bu ikki tushunchani ruhiy taraqqiyot bosqichlari sifatida ko‘rsatadi: Faqr -dunyodan voz kechish, nafsni jilovlash, Tark -dunyoviy bog‘liqliklardan uzilish, Ishq -qalbning ilohiy muhabbat bilan to‘lishi, Fano -“men”ning yo‘qolishi, haqiqat bilan uyg‘unlashish, Baqo -ruhning ilohiy haqiqatda abadiylashuvi. Navoiyning forsiy qasidalarida aynan ana shu ruhiy ketma-ketlik badiiy-ramziy obrazlar orqali ifodalangan. Parvona, sham‘, gul, xazon, daryo, ummon, sahro singari ramzlar faqru fano jarayonining turli bosqichlarini timsollaydi.

Navoiy faqru fano tushunchalarini tasvirlashda boy ramziy tizimdan foydalanadi. Uning forsiy qasidalarida: Parvona -o‘zini fano qiluvchi oshiq, Sham‘ -ilohiy nur, haqiqat, Sahro -tark holati, yolg‘izlik va izlanish, Ummon -ilohiy ma‘rifatning cheksizligi, Ko‘ngil -ilohiy tajallining maydoni sifatida gavdalanadi.

“Tuhfat ul-afkor” qasidasining oxirida mamlakatni darvishlardek idora qilish fikri uqtiriladi. Sulton Husayn Boyqaro darvishvash, “faqr-oyin” (o‘zini faqir tutgan) shoh sifatida madh etiladi:

*Shahi darvishvash – sultoni faqr-oyin, az ezid
Farozi taxti shohi faqru darvishist dar shohash.*

Tarjimasi:

U darvishvash, faqr-oyin sultondir, ki xudo

U faqr shoh taxtini yuksaklarga ko‘tarmish va darvishlik uning shonidadir.

Navoiy qasidada Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Xoqoniylarni faxr bilan esga oladi, ular boshlagan yo‘lni davom ettirganini qayd qiladi.

Adib ushbu qasidalarida dinni adolat bayrog‘i sifatida targ‘ib va tashviq qiladi. Adolatsizlikka qarshi isyon ko‘taradi. Qasidalarda riyokor din arboblari tanqidi Umar Xayyom ruboiylaridagi isyonkor tanqid ruhi bilan juda hamohangdir.

Navoiy “Sittayi zaruriya” to‘plamiga kirgan qasidalarda Qur‘onga, Muhammad payg‘ambarga nisbat berilgan, shariat qonun-qoidalariga amal qilishga, odil, faqirona hayot kechirishga chaqiradi. U faqirona hayotni (“faqru fano”, “Nasib soz tariqi fano, ki ayni baqost”) adolatsizlikka, zulmga, jaholat dunyosiga qarshi qo‘yadi. Uning forscha qasidalarida naqshbandiylik ruhi chuqur iz qoldirgan. Qasidalar yuksak san‘at, badiiy mahorat bilan yozilgan. Ularni hayotdan olingan xilma-xil badiiy vositalar, rang-barang lavhalar bezab turadi [5;7].

Navoiyning forsiy qasidalarida faqru fano tasavvufning eng muhim tushunchalari sifatida keng yoritilgan. Shoir faqrdagi kamtarlik, dunyodan voz kechish, nafsoniy istaklar ustidan g‘alaba qozonish orqali insonning ruhiy poklanishini ulug‘laydi. Fano esa uning nazarida insonning ilohiy haqiqatga yaqinlashuvi, o‘z “men”idan voz kechib, ruhiy kamolotga erishish holatidir. Navoiy bu tushunchalarni chuqur falsafiy mazmun va mahorat bilan tasvirlab, forsiy qasidalarini tasavvufiy tafakkurning badiiy namunalariga aylantirgan. Uning ijodida faqru fano -komil inson darajasiga yetaklovchi ruhiy-ma’naviy dastur sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Attor Fariduddin Ilohiynoma.-Toshkent:YOzuvchi, 1994. –B.12
2. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. . - Тошкент: Фан, 2003
3. Bekova N.J. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati, Buxoro-2021 УДК: [821.222.1-1:801.6]-95Навоий
4. Nazzora BEKOVA, Hikmet KORAŞ ALISHER NAVOIY QASIDALARI: ADABIY TA’SIR VA NOVATORLIK . XI *Beynəlxalq Türk Dünyası Araşdırmaları Simpoziumu 11-13 İyun 2024 /Bakı*
5. Feruza Nizamova. Alisher Navoiyning forsiy qasidalari. 08.02. 2025 <https://www.iiu.uz/oz/news/3798>

“SAODAT” JURNALIDA CHOP ETILGAN TARJIMA ASARLAR TAHLILI (1966-1976-YILLAR MISOLIDA)

*Doniyorova Gulrux Baxtiyorovna,
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o‘qituvchisi*

Joriy yilda “Saodat” jurnali 100 yoshga to‘ldi. Dastlab “Yangi yo‘l” nomi bilan 1925-yildan chop etila boshlagan bu nashr millatimiz xotin-qizlari bosib o‘tib kelayotgan yo‘llarining bir qismi desak yanglishmaymiz. Jurnal nafaqat mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi voqea-hodisalar, o‘zbek adabiyotidagi qizg‘in adabiy jarayonlarni yoritdi balki, dunyo adabiyotining sara namunalarini ham chop etib boradi. Tarjima asarlarning qiymati shundaki, u turli xalqlar, millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarni yaxshilashga xizmat qiluvchi vositadir. “Saodat” jurnalining 1966-1976-yillardagi sonlarida ko‘plab chet el adiblarining qissa, hikoya va she‘rlari chop etilgan. Jurnalda nasriy asarlarning tarjimasida Xolida Ahrorova, Lola Tojiyeva, Dilbar Mahmudova, Zumrad, Kibriyo Qahhorova va Hulkar Olimjonava kabi ayol tarjimonlarning faolligini ko‘ramiz.

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA UNI
O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”**

mavzusidagi

**IV AN‘ANAVIY ILMIY – AMALIY XALQARO ANJUMAN
MATERIALLARI**

(2-kitob, III-VI shu‘balar)

Muharrir: S.Normammedov

Musahhah: J.Murtozayev

Sahifalovchi: G.Kadirova

Guvohnoma № 14-0003, 30.04.2020 Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi
10.12.2025 Format A4. Garnitura «Times New Roman». Shartli bosma taboq
31,37 Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 61

JDPU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.

130100, Sh.Rashidov shohko‘chasi, 4-uy

Tel./faks: (+99872) 226-02-93

(+99893) 305-85-00